ISSN: 2687-0142

# ИНТЕРНАУКА

# НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

13(142)

ЧАСТЬ 2



internauka.org

г. Москва

ИНТЕРНАУКА
internauka.org

# «ИНТЕРНАУКА»

*Научный журнал*

№ 13(142)
Апрель 2020 г.

Часть 2

Издается с ноября 2016 года

Москва
2020

УДК 08
ББК 94
И73

Председатель редакционной коллегии:
***Еникеев Анатолий Анатольевич*** **-** кандидат философских наук, доцент, доцент кафедры философии КУбГАУ, г. Краснодар.

Редакционная коллегия:
***Авазов Комил Холлиевич*** - старший преподаватель;
***Бабаева Фатима Адхамовна*** – канд. пед. наук;
***Беляева Наталия Валерьевна*** – д-р с.-х. наук;
***Беспалова Ольга Евгеньевна*** – канд. филол. наук;
***Богданов Александр Васильевич*** – канд. физ.-мат. наук, доц.;
***Большакова Галина Ивановна*** – д-р ист. наук;
***Виштак Ольга Васильевна*** – д-р пед. наук, канд. тех. наук;
***Голованов Роман Сергеевич*** – канд. полит. наук, канд. юрид. наук, MBA;
***Дейкина Алевтина Дмитриевна*** – д-р пед. наук;
***Добротин Дмитрий Юрьевич*** – канд. пед. наук;
***Землякова Галина Михайловна*** – канд. пед. наук, доц.;
***Канокова Фатима Юрьевна*** – канд. искусствоведения;
***Кернесюк Николай Леонтьевич*** – д-р мед. наук;
***Китиева Малика Ибрагимовна*** – канд. экон. наук;
***Кобулов Хотамжон Абдукаримович*** – канд. экон. наук;
***Коренева Марьям Рашидовна*** – канд. мед. наук, доц.;
***Маматқулов Давлатжон Махаматжонович*** - доктор философии(PhD) по педагогическим наукам;
***Напалков Сергей Васильевич*** – канд. пед. наук;
***Понькина Антонина Михайловна*** – канд. искусствоведения;
***Савин Валерий Викторович*** – канд. филос. наук;
***Тагиев Урфан Тофиг оглы*** – канд. техн. наук;
***Харчук Олег Андреевич*** – канд. биол. наук;
***Хох Ирина Рудольфовна*** – канд. психол. наук, доц. ВАК;
***Шевцов Владимир Викторович*** – д-р экон. наук;
***Щербаков Андрей Викторович*** – канд. культурологии.

**И73** **«Интернаука»:** научный журнал – № 13(142). Часть 2. Москва, Изд. «Интернаука», 2020. – 96 с. Электрон. версия. печ. публ. – https://www.internauka.org/journal/science/internauka/142

ББК 94

ISSN 2687-0142

© ООО «Интернаука», 2020

## Содержание

**Статьи на русском языке** 6

**Экономика** 6

ПОЧЕМУ ВЫПУСКНИКИ ВУЗОВ НЕ РАБОТАЮТ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ? 6
Ахмедова Аминат Магомедовна

ИННОВАЦИИ - ЗАЛОГ РАЗВИТИЯ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРАНЫ 9
Буранова Манзура Абдукадыровна

РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОСТИ - ОСНОВА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СТРАНЫ 12
Буранова Манзура Абдукадыровна
Сайфутдинова Нигина Фуркатовна

КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ОСНОВА РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА 15
Джураев Хамза Зунунович

ОСОБЕННОСТИ БАНКОВСКИХ СИСТЕМ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 17
Казиева Нургул Ескуловна

ЛИЗИНГ, КАК НОВЫЙ ФИНАНСОВЫЙ ИНСТРУМЕНТ 22
Онласын Акерке Мараткызы
Юсупова Салтанат Абаевна

АНАЛИЗ МЕРОПРИЯТИЙ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ЗДАНИЙ 25
Тлеппаев Арсен Молдагалиевич
Омаров Тимур Кенесович

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ЗАЛОГ УСПЕШНОЙ ПОЛИТИКИ РУЗ 28
Хашимова Наима Абитовна
Буранова Манзура Абдукадыровна

**Юриспруденция** 30

РЕГИСТРАЦИЯ ПРАВ НА ОБЬЕКТЫ НЕДВИЖИМОСТИ В СИСТЕМЕ ПУБЛИЧНО-ПРАВОВЫХ СРЕДСТВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЙ В ЭКОНОМИКЕ РФ 30
Керимова Елена Владимировна

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ ОСВИДЕТЕЛЬСТВОВАНИЯ С СОБЛЮДЕНИЕМ ЛИЧНОЙ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ И НРАВСТВЕННОСТИ ЖЕНЩИНЫ-ПОТЕРПЕВШЕЙ ЛИБО СВИДЕТЕЛЯ 33
Финк Денис Александрович

ПОРЯДОК ВВОЗА И ВЫВОЗА ПОДКАРАНТИННОЙ ПРОДУКЦИИ 37
Юрьева Марина Михайловна

**Papers in english** 40

**Pedagogy** 40

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ANIMAL NAMES IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS 40
Valijanov Sherzod

**Engineering** 43

PID CONTROLLER METHOD FOR TEMPERATURE CONTROL IN CYBER –PHYSICAL HOME SYSTEM 43
Nguyen Duc Binh

**Philology** 47

MULTIMEDIA MEANS FOR THE DEVELOPMENT STUDENTS’ READING COMPETENCE 47
Maftunabonu Umarova

**Қазақ тілінде мақалалар** 49

**Техникалық ғылымдар** 49

ЕТ ӨНІМДЕРІНДЕ ӨСІМДІК ШИКІЗАТЫН ҚОЛДАНУЫН НЕГІЗДЕУ ЖӘНЕ ЗЕРТТЕУ 49
Садыкова Еркежан
Изтелиева Раушан Акмуратовна
Мусаева Салтанат Джуматқызы

**Филология** 52

КЕМЕЛ ТҰЛҒА ТҰЖЫРЫМДАМАСЫ ЖӘНЕ АВТОРЛЫҚ ШЕШІМ (РАЙЫМБЕК БАТЫР РОМАН – ДИОЛОГИЯСЫ НЕГІЗІНДЕ) 52
Балтабай Әбдіғазиұлы
Абиыр Қарлығаш Енгебайқызы

**Экономика** 58

ҚАЗАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫНДАҒЫ ИПОТЕКАЛЫҚ НЕСИЕЛЕУ МӘСЕЛЕЛЕРІ 58
Абдижапар Айғаным Бахытқызы

**O'zbek tilida maqolalar** 61

**Tarix va arxeologiya** 61

МАЪНАВИЯТИМИЗНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА СУЛАЙМОН БОҚИРҒОНИЙ АСАРЛАРИ МАНБА СИФАТИДА 61
Бекимбетов Бахадыр Мырзабаевич

ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ 63
Эралиева Зулфия Йигиталиевна
Эралиева Нодирахон Турғунбоевна
Холимов Бекзод Қадамбоевич
Алимов Фарход Юлдошевич
Хажиева Дилноза Фарходовна

**Madaniy tadqiqotlar** 66

ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АҲЛОҚИЙ ҚИЁФАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФОЛЬКЛОР-ЭТНОГРАФИК ЖАМОАЛАРИНИНГ ЎРНИ 66
Суннатиллаев Асатилла Суннатович

**Tibbiyot va farmakologiya** 68

YUQUMLI KASALLIKLARNING INSONIYAT VA JAMIYAT HAYOTIDAGI XAVFI 68
Nazarov Tohir Toshpoʻlotovich

**Yer fan** 70

O’ZBEKISTONDA EKOLOGIYA VA TURIZM 70
Nizamova Saida Qayumovna
Ikramova Nargiza Sagdullayevna
Ernazarova Nazokat Xojiakbarovna
Kenjayeva Gulchehra Mamajonovna
Azamatov Hursanali Imomamaliyevich

**Pedagogika** 73

O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA XALQARO TADQIQOTLANING O’RNI VA AHAMIYATI 73
Karimova Zuxra Obidovna
Boboyeva Zulayxo Toxirovna
Baxromova Aziza Shuxrotullayevna
Sarimsaqov Ilyosbek
Mingboyeva Odina Mahmudjonovna
Qurbonova Shohista G’ofirjonovna

HARBIY JAMOA PSIXOLOGIYASI VA SHAXSIY TARKIBNI JIPSLASHTIRISHDA OFITSERLAR FAOLIYATINI HISOBGA OLISH 76
Raximov Farrux Boltayevich

## TIBBIYOT VA FARMAKOLOGIYA

# YUQUMLI KASALLIKLARNING INSONIYAT VA JAMIYAT HAYOTIDAGI XAVFI

***Nazarov Tohir Toshpo'lotovich***

*BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi,*
*O'zbekiston, Buxoro*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, kasallikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar olib borishning samarali jihatlari haqida fikr yuritilgan.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются возникновение инфекционных заболеваний, эффективные аспекты профилактических мер против этой болезни.

**ABSTRACT**

This discusses the emergence of infectious diseases, the effective aspects of preventive measures against the disease.

**Kalit so'zlar:** Yuqumli kasallik, bino, pandemiya, observatsiya, xavfsizlik, aholi, epidemiya, karantin, virus, bemor, dezinfeksiya.

**Ключевые слова:** Инфекционные заболевания, строительство, пандемия, наблюдение, безопасность, население, эпидемия, карантин, вирус, пациент, дезинфекция.

**Keywords:** Infectious, disease, building, pandemic, observation, security, population, epidemic, quarantine, virus, patient,disinfection.

Yuqumli kasalliklar insoniyatga qadim zamonlardan beri ma'lum. Ko'pgina yuqumli kasalliklar qadimda g'oyat keng tarqalib, og'ir kechgan va minglab odamlarning yostig'ini quritgan. O'sha davrdayoq yetuk olimlar vabo, chinchechak, o'lat kabi ko'p uchraydigan xastaliklar yuqumli ekanini ta'kidlashib, ularning tirik qo'zg'atuvchilari bo'lishi mumkinligini gumon qilishgan. Hatto kasallikdan saqlanishning oddiy ehtiyot choralari ishlab chiqilgan.

XIX asr o'rtalarida Y. Paster, R. Kox, I.I. Mechnikov, D.I. Ivanovskiy va boshqa olimlar yuqumli kasallikning qo'zg'atuvchisi bo'lib, patogen mikroorganizmlar hisoblanishini isbotlab berishdi (bakteriyalar, viruslar, rikketsiylar, zamburug'lar).

**Yuqumli kasalliklar quyidagi xossalari bilan tavsiflanadi:**

1. Yuqumli kasalliklar patogen mikroorganizmlar ta'sirida yuzaga keladi.
2. Bemordan sog' odamga yuqadi.
3. Aholi o'rtasida keng tarqalib, sporadik, epidemiya, endemiya va pandemiyalarni keltirib chiqaradi.
4. Yuqumli kasalliklar ma'lum davrlarda, ya'ni yashirin (inkubatsion) darak beruvchi simptomlar (prodromal), kasalliklarning asosiy klinik belgilari namoyon bo'ladigan davri va sog'ayish davrlarda kechadi.
5. Kasallikdan so'ng immunitet yuzaga keladi.

Kasallikning yuqish mexanizmi deb, kasallik qo'zg'atuvchilarning bemor organizmidan sog'lom organizmga o'tishiga aytiladi.

Turli kasalliklarda yuqish yo'llari har xil bo'ladi: yuqumli kasalliklarni guruhlarga bo'lishda yuqish mexanizmini hamda kasallik mikrobi qaysi a'zoda joylashishiga qarab taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida BMTga a'zo bo'lganligi jahon mamlakatlari bilan savdo-sotiq, madaniy aloqalarning rivojlanib borishi, uning chegarasi hamda ichki va tashqi aloqalarning faollashganligi sababli mamlakatimiz hududini o'ta xavfli (karantin) va boshqa yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish hamda ularni chet eldan olib kelinishiga va tarqalishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega. Davlat hududini sanitariya - jihatidan qo'riqlash — bu davlat hududiga chet davlatlardan karantin va boshqa yuqumli kasalliklarning olib kelinishiga, bunday kasallar tarqalgan holda ularni yo'q qilishga qaratilgan umumdavlat miqyosidagi tadbirlar tizimidir. Bu tadbirlar O'zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida» gi Qonunida keng yoritilgan.

Yuqumli kasalliklar aholi o'rtasida to'rt xil shaklda tarqaladi: *epidemiya* — infeksiyaning ma'lum hududda (tuman, qishloq, jamoa xo'jaligi, shahar) tarqalishiga aytiladi; *pandemiya* — infeksiya butun mamlakatlarni, hatto qit'alarni qamrab olishiga aytiladi; *sporadik* — yuqumli kasalliklarning yakka-yakka uchraydigan turiga aytiladi. Masalan, gazli gangrena, qoqshol; *endemiya* — muayyan joyda infeksiya manbayi borligi yoki infeksiya tashuvchi hasharot bor joyda o'zi uchun qulay sharoit topganligiga ko'ra, shu joyda infeksiyaning uzoq davom etishi.

**Yuqumli kasalliklarning oldini olish**

Sog'liqni saqlash ishining asosiy yo'nalishi kasallikning oldini olish chora-tadbirlaridir. Bu tadbirlar epidemik jarayonning uch davriga, ya'ni infeksiya manbayi, yuqish yo'llari, kasallikka moyil organizmga qaratilgan.

Epidemik jarayonning birinchi davrida ko'riladigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: bemorga erta tashxis qo'yish, sog' odamlardan ajratish, kasalxonaga yotqizishi va davolash, bemor bilan muloqotda bo'lganlar ustidan tibbiy nazorat o'rnatish hamda kasallik o'chog'ida dezinfeksiya o'tkazishdan iborat.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisi aniqlangandan so‘ng o‘ziga xos profilaktik chora-tadbirlar o‘tkaziladi (emlash).

*Karantin* — aholini ajratib, muloqotlarni cheklab qo‘yishni ko‘zda tutadi. Korxonalarda va ishlab chiqarish faoliyatini davom ettirayotgan muassasalarda epidemiyaga qarshi tegishli ish tartibi o‘rnatiladi.

Kasallik o‘chog‘ida laboratoriya tekshiravidan so‘ng, xavfli infeksiyalar qo‘zg‘atuvchilari topilmay, ommaviy tarqalib ketish xavfi bo‘lmasa, karantin observatsiya rejimi bilan almashtiriladi. Observatsiya deb, zararlangan o‘choq ustidan tibbiy kuzatuv olib borish va davolash profilaktika hamda cheklovchi chora-tadbirlarni o‘tkazishni ko‘zda tutadigan tadbirlar kompleksiga aytiladi.

**“Koronavirus” infektsiyasi qanday kasallik?**

Koronavirusli infektsiya (KVI)- o‘tkir respirator kasallik bo‘lib, u yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanishi va sust namoyon bo‘ladigan umumiy zaharlanish belgilari bilan kechadigan kasallikdir.

Hozirgi paytda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, Xitoy xalq respublikasida koronavirusning yangi tipining epidemiyasi yuzaga kelgan. Xitoy xalq respublikasining HTSQ-2005 Milliy koordinatori ma’lumoti bo‘yicha, 2020-yilning 23-yanvar tonggi holatidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoyda 571 holatda koronavirus kasalligi aniqlangan, ulardan 17 nafar inson vafot etgan.

Shuningdek, kasallik Tailand, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda aniqlangan. Uxan shahrida o‘tkazilgan epidemiologik surishtiruv natijalariga ko‘ra, ayrim kasallangan bemorlar mahalliy dengiz mahsulotlari savdo bozorlarida ishlaganligi ma’lum bo‘lgan. Viruslar oilasiga kiruvchi Coronoviridae, RNK-saqlovchi, kattaligi 80-220 nm. Virusning tashqi qobig‘i vorsinkalar bilan qoplangan. Bu vorsinkalar orqali virus hujayraga birikadi. *Viruslar yuqori nafas yo‘llari* epiteliysining tsitoplazmasida ko‘payadi. Bu virus hujayra ichiga kirgach 4-6 soatdan keyin ko‘plab virionlarni hosil qiladi.

**Kasallik havo - tomchi yo‘li orqali yuqadi.**

Ushbu kasallikka qarshi bugungi kunda vaksinalar ishlab chiqilmagan. Ikkilamchi yuqtirish holatlari (bemordan-sog‘lom odamga) tibbiyot xodimlari va bemorlar oila a’zolari o‘rtasida kuzatilgan. Barcha holatlarda infektsiya bemor bilan yaqin muloqotda bo‘lgan shaxslarda kuzatilgan.

Kasallik yer yuzida keng tarqalgan. Mavsumga qarab koronavirus infektsiyasi barcha yuqori nafas yo‘llari kasalliklarining 10-35% ini tashkil qiladi. Koronavirus infektsiyasi kuzning oxiri, qish va bahorning boshlarida (rinovirusli infektsiya kam uchraganda) ko‘p uchraydi.

Koronavirus infektsiyasi deyarli barcha davlatlarda shiddat bilan tarqalib bormoqda. Xususan 4-aprel holatiga ko‘ra ma’lumotlar:

O‘zbekiston: Kasallanganlar -241 (+14), sog‘ayganlar- 25, vafot etganlar- 2 nafar.

Butun dunyoda: Kasallanganlar-1099389 (+83986), sog‘ayganlar- 226603(+16024), vafot etganlar- 58871 (+5841) nafar.

Hozirgi pandemiya sharoitida barcha davlatlar singari O‘zbekistonda ham kasallikni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqib tadbiq qilinayapti. Bunday favqulodda vaziyatda hamma bir tanu-jon bo‘lib kurashishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari, Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, Oliy ta’lim muassasalari va ko‘plab korxona, tashkilotlarga mehnat ta’tili berilishi albatta bejizga emas. Bunday vaziyatda eng yaxshi kurashish bu uyda o‘tirishdir. Sababsiz ko‘chalarga chiqmaslik, faqatgina davlatga mas’ul shaxslar maxsus ruxsatnoma bilan harakatlanishi hamda ular tomonidan “Biz siz uchun ishdamiz Siz biz uchun uyda qoling” shiori ostidagi say-harakatlar barchasi kasallikni batamom yo‘qotishdan iborat.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 03.04.2020-yilgi O‘zbekiston Respublikasi xalqiga murojaatnomada shunday deydi: “Bugungi kunda butun dunyo, insoniyat murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Mamlakatimiz epidemiologik vaziyatni jilovlash, aholi salomatligini har tomonlamahimoya qilish uchun barcha choralar ko‘rilmoqda. Diagnostika, davolash, karantin ishlarini jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari hamda ilg‘or xorijiy tajribalarga tayanib amalga oshirmoqdamiz. Fursatdan foydalanib, bu kurashning oldingi saflarida chinakam jasorat va matonat ko‘rsatayotgan jonkuyar va olijanob shifokorlarimizga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Yuzaga kelgan vaziyatni to‘g‘ri tushunib, bizni faol qo‘llab-quvvatlayotgan xalqimizga, aziz yurtdoshlarimga rahmat aytaman. Men bugungi kunda uy sharoitida tahsil olayotgan talaba va o‘quvchi yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman: aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni bekor o‘tkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan o‘zlashtiring. Kitob o‘qing, bilimlarizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang”. Bunday murakkab sharoitda yurtboshimizning aytgan so‘zlariga amal qilib, yoshi kattalarga insonparvarlik ko‘rsatsak Olloh bizlardan marhamatini dariq tutmaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Mirziyoyev.Sh O’zbekiston Respublikasi xalqiga murojaatnomasi 03.04.2020-y.
2. Ubaydullayev Sh., Ortiqov M. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma Toshkent - «Ilm Ziyo» - 2007.
3. Oripova M. Q., To‘xtayev I. R. Fuqaro muhofazasi O‘quv uslubiy qo‘llanma Buxoro 2006-yil.
4. Fatoyev I.I., Tuxtayev I.R., Subxonova S.K. “Fuqaro muhofazasi” fanidan savollar va javoblar. Buxoro 2007-yil.

# «ИНТЕРНАУКА»

*Научный журнал*

№13(142)
Апрель 2020

Часть 2

В авторской редакции
Мнение авторов может не совпадать с позицией редакции

Издательство «Интернаука»
125424, Москва, Волоколамское шоссе, д. 108, цокольный этаж,
помещение VIII, комн. 4, офис 33
E-mail: *mail@internauka.org*

Отпечатано в полном соответствии с качеством предоставленного
оригинал-макета в типографии «Allprint»
630004, г. Новосибирск, Вокзальная магистраль, 3

16+

Свидетельство о регистрации СМИ:
ЭЛ № ФС77-66291 от 01 июля 2016 г.